



EOC
EUROASIAN
ONLINE
CONFERENCES

ENGLAND CONFERENCE

**INTERNATIONAL CONFERENCE ON
MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND
EDUCATION**



Google Scholar

zenodo

OpenAIRE

doi digital object
identifier

eoconf.com - from 2024



INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND EDUCATION: a collection scientific works of the International scientific conference – London, England, 2026. Issue 5

Languages of publication: Uzbek, English, Russian, German, Italian, Spanish

The collection consists of scientific research of scientists, graduate students and students who took part in the International Scientific online conference «**INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND EDUCATION**». Which took place in London 2026.

Conference proceedings are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees. The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.





OLIV TA'LIM TIZIMI YANGI MEDIA INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISH SHAROITIDA N. LUMANN NAZARIYASI ASOSIDA SOTSILOGIK TAHLIL

Usanova Madina Ishratovna

Mirzo Ulug`bek nomidagi O`zbekiston Milliy universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti 1-bosqich magistranti

madinakandaxarova@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada zamonaviy oliy ta'lim tizimida yangi media infratuzilmasining rivojlanishi Niklas Lumanning "sotsial tizimlar nazariyasi" asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda kommunikatsiya, avtopoezis va tizim differensiallashuvi tushunchalari orqali ta'lim tizimidagi o'zgarishlar ochib beriladi.

Kalit so'zlar: sotsial tizim, kommunikatsiya, oliy ta'lim, yangi media, raqamlashtirish.

Аннотация. В данной статье анализируется развитие инфраструктуры новых медиа в современном высшем образовании на основе «теории социальных систем» Никласа Лумана. Исследование выявляет изменения в системе образования посредством концепций коммуникации, автопоэзиса и системной дифференциации.

Ключевые слова: социальная система, коммуникация, высшее образование, новые медиа, цифровизация.

Abstract. This article analyzes the development of new media infrastructure in modern higher education based on Niklas Lumann's "social systems theory". The study reveals changes in the education system through the concepts of communication, autopoiesis and system differentiation.

Keywords: social system, communication, higher education, new media, digitalization.

Kirish

Bugungi globallashtirish va raqamlashtirish sharoitida oliy ta'lim tizimi tubdan o'zgarib bormoqda. Ayniqsa, yangi media infratuzilmasining rivojlanishi ta'lim jarayoniga yangicha shakl va mazmun olib kirmoqda. Bu jarayonlarni tushuntirishda biz Niklas Lumanning tizimlar nazariyasiga tayanildi.

Asosiy qism

Lumanning "Soziale Systeme" asarida jamiyat kommunikatsiyalar tizimi sifatida talqin qilinadi. Bu yondashuvga ko'ra: jamiyatning asosiy elementi — kommunikatsiya hisoblanadi. Sotsial tizimlar o'z-o'zini yaratadi. Buni Luman Autopoezis (Autopoiesis) deb ataydi. Unga ko'ra har bir tizim muhitdan ajralgan holda faoliyat yuritadi.

Ta'lim tizimi ham mustaqil sotsial tizim sifatida qaraladi. Oliy ta'lim tizimi sotsial tizim sifatida Lumann nazariyasiga ko'ra, oliy ta'lim tizimi: o'zining





kommunikatsiya shakllariga ega hisoblanadi. Masalan, ma'ruza mashg'ulotlari, seminar darslari yoki imtihon, oraliq va yakuniy nazoratlar.

Zamonaviy raqamli ta'lim texnologiyalari, jumladan, Moodle, LMS, MOOC va HEMIS kabi platformalar oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini samarali tashkil etish, baholash va monitoring qilish, shuningdek, o'qituvchi va talaba o'rtasidagi interaktiv muloqotni kuchaytirish imkonini bermoqda. Bu texnologiyalar ta'lim jarayonida o'qituvchining metodik rolini qayta ko'rib chiqishni, talabning esa bilim olish jarayonida faol subyekt sifatida ishtirok etishini taqozo etadi¹⁰.

Ta'lim tizimi ham ichki qoidalar asosida ishlaydi, lekin tashqi muhitdan, masalan, texnologiya, siyosat, iqtisod tarmoqlari bilan o'zaro ta'sirlashadi, aloqaga kirishadi. Shu bilan birga ta'lim sohasi ham Lumangga ko'ra, sotsial tizim sifatida o'zining mustaqilligini saqlaydi.

Bundan tashqari o'quv jarayonida bir qancha zamonaviy texnologiyalardan foydalanish mumkin. O'quv jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishning quyidagi imkoniyatlari mavjud¹¹:

O'qituvchiga o'quv materiallarini ta'lim oluvchilarga etkazib berishda birmuncha engillashtirilishi;

Dars jarayonida berilayotgan o'quv materiallarning takroriy holda namoyish qilish imkoniyatining mavjudligi;

Ta'lim oluvchilar o'zlashtirish darajasining yuqori bo'lishiga erishish;

Multimediali elektron darsliklar tarkibida ko'rgazmali virtual stendlar tashkil qilish imkoniyati;

Amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini video, audio va animatsiyali vositalar orqali qiziqarli tashkil qilish imkoniyati;

Tavsiya qilingan o'quv materiallaridan ommaviy tarzda foydalanish, ya'ni tarmoq texnologiyalari yordamida bir yoki bir nechta auditoriyada va guruhlarda foydalanish imkoniyatining mavjudligi;

O'quv materiallari ma'lumotlar bazasini tezkor ravishda o'zgartirib, yangi axborot zaxiralarini kiritish imkoniyatining mavjudligi;

Amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari mobaynida ma'ruza materiallariga o'tish imkoniyatining yaratilishi;

Masofadan o'qitish uchun asosiy vositalardan biri sifatida foydalanish imkoniyati;

Ta'lim oluvchilarning individual bilimlarini baholash, nazorat qilish va boshqalar.

Yangi media bu tizimning kommunikatsiya shakllarini o'zgartirmoqda. Yangi media infratuzilmasi va kommunikatsiya transformatsiyasi juda muhim ahamiyat

¹⁰ file:///C:/Users/netcom/Downloads/698c1829e68e0851415775.pdf

¹¹ file:///C:/Users/netcom/Downloads/dars_sifatini_oshirishda_zamonaviy_axborot_texnologiyalaridan_foydalanish%20(3).pdf





kasb etmoqda. Raqamli texnologiyalar, jumladan, onlayn platformalar, ijtimoiy tarmoqlar, LMS tizimlar ta'limdagi kommunikatsiyani tubdan o'zgartirdi. Shuningdek, bir qancha qulayliklar yaratdi. Intellectual o'quv tizimlari joriy etildi. Bu talabaning bilim darajasini tahlil qilib, unga mos darajadagi topshiriqlarni taklif etadi.

An'anaviy ta'limdan zamonaviy rivojlangan ta'lim tizimiga o'tilmoqda. Oliy ta'lim muassasalarida yangi interaktiv texnologiyalardan foydalanilgan holda darslar olib borilmoqda. Yangi virtual doskalardan foydalangan holda xorijiy texnologiyalar asosida zamonaviy ta'lim tizimi amaliyotda qo'llanilmoqda. Bu insonning vaqtini tejamoqda va tezkor ta'lim olish imkoniyatini yaratmoqda. Shuningdek, talaba darsda passiv tinglovchi emas, balki jarayonning faol ishtirokchisiga aylanadi. Bu jarayon Lumannning kommunikatsiya markaziy rol o'ynaydi degan g'oyasini tasdiqlaydi.

Kompyuter bilan muloqot, virtual laboratoriyalar va simulyatsiyalar talabada kashfiyotchi ruhini uyg'otadi. Bundan tashqari ta'lim jarayonini yanada qiziqarliroq qilish uchun ta'lim jarayoniga o'yin elementlarini kiritishimiz mumkin. Ta'lim jarayoniga o'yin elementlarining kiritilishi talabalarning fanga bo'lgan qiziqishini va darsga qatnashish darajasini sezilarli darajada ko'taradi.

Avtopoezis va ta'lim tizimining moslashuvi. Autopoezis tushunchasi asosida qaralganda, ta'lim tizimi yangi media vositalaridan foydalanish jarayonlariga moslashadi va yangi o'quv formatlarini ishlab chiqadi. Shuningdek, ichki rivojlanish orqali o'zini yangilaydi, masalan, masofaviy ta'lim, onlayn kurslar paydo bo'lishi tizimning o'z-o'zini qayta ishlab chiqishi hisoblanadi.

Differensiallashuv va yangi media. Zamonaviy jamiyatda differensiallashuv kuchaymoqda. IT-ta'lim masofaviy ta'lim va aralash (blended) ta'lim tizimlari mavjud. Har bir ta'lim tizimlari har bir talabaga o'quv materialini o'zining qabul qilish tezligiga mos ravishda o'zlashtirish imkonini beradi. Talaba tushunmagan qismini qayta ko'rishi yoki tez o'zlashtirgan bo'lsa, ilgariroq ketishi mumkin. Shuningdek, moslashuvchan o'quv dasturlari: Intellectual o'quv tizimlari talabaning bilim darajasini tahlil qilib, unga mos darajadagi topshiriqlarni taklif etadi. Har bir yo'nalish o'z kommunikatsiya modeliga ega bo'lib, tizim ichida alohida sistemalarni shakllantiradi.

Muammolar va qarama-qarshiliklar. Yangi media infratuzilmasining rivojlanishi bilan birga quyidagi muammolar yuzaga keladi: raqamli tengsizlik texnologiyaga haddan tashqari bog'liqlik, insonlar orasida insoniy muloqotning kamayishi hisoblanadi. Bu esa Lumann nazariyasidagi tizim va muhit o'rtasidagi murakkab munosabatlarni ko'rsatadi.

Niklas Lumann funksionalizmni zamonaviy tizimlar nazariyasiga moslashtirgan. Lumannning yondashuvi ijtimoiy tizimlarning o'z-o'zini boshqarish xususiyatlariga





e'tibor qaratadi (Luhmann, 1995)¹². Shu bilan birga, postmodern yondashuvlar strukturalizmga qarama-qarshi turib, jamiyatni bir butun tizim sifatida emas, balki murakkab va ko'p qatlamli hodisa sifatida tahlil qiladi¹³.

Shuningdek, bir qancha adabiyot va maqolalarni ham tahlil qilishga harakat qildik. X.M.Xasanboyevna zamonaviy ta'lim texnologiyalarining o'qitish metodikasiga ko'rsatadigan ta'sirini konseptual va ilmiy-nazariy yondashuv asosida tahlil qilgan¹⁴.

H. A.Шиббаева, Л. В.Воронкова lar zamonaviy axborot jamiyati sharoitida oliy ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etishni ijtimoiy innovatsiya sifatida ilmiy jihatdan asoslab bergan¹⁵.

A.В.Азархин maqolada ta'lim jarayoni tushunchasi pedagogik-huquqiy doktrina asosida keng yoritib, u nafaqat o'qituvchi va talaba faoliyati, balki o'quv rejalari, dasturlar, nazorat va baholash mexanizmlarini o'z ichiga olgan murakkab tizim sifatida talqin etadi¹⁶.

A.Shavkat, A.Kural ning ilmiy izlanishlarida masofaviy ta'lim, sun'iy intellekt, interaktiv metodlar, virtual laboratoriyalar va raqamli ta'lim resurslarining o'quv jarayoniga integratsiyasi ta'lim samaradorligini oshiruvchi asosiy omillar sifatida ko'rsatilgan¹⁷.

Shuningdek, dars mashg'ulotlarini o'zlashtirishda yordam beruvchi metodik dasturiy vositalar ham mavjud. Ular fanning biror bir mavzusini talabalarga tushunarli tartibda yetqazilishini ta'minlab beradi. Misol uchun bu kabi dasturiy vositalarga Microsoft Office paketining Microsoft Power Point dasturi, Microsoft Word, MyTest, easyQuizzy, iSpring Suite, Bandicam, LucidChart va boshqa dasturlarni aytish mumkin. Yuqoridagi dasturiy vositalarni dars mashg'ulotlarida qo'llash ancha foydali hisoblanadi¹⁸.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, Niklas Lumanning sotsial tizimlar nazariyasi oliy ta'lim tizimidagi yangi media jarayonlarini chuqur tushuntirish imkonini beradi. Ta'lim tizimi kommunikatsiya asosida shakllanadigan, o'zini o'zi rivojlantiruvchi

¹² 9. Luhmann, N. (1995). Ijtimoiy Tizimlar. Stanford Universiteti Nashri. B. 45.

¹³ https://www.tsuull.uz/sites/default/files/maqola_11.pdf

¹⁴ Xasanboyevna, X. M. (2025). ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARINING O'QITISH METODIKASIGA TA'SIRI: KONSEPTUAL YONDASHUV. Modern World Education: New Age Problems– New solutions, 2(12), 65-68.

¹⁵ Anvarovna, A. D. (2025). TA'LIM TIZIMINI TASHKIL ETISHDA ARALASH TA'LIM TEXNOLOGIYALARI. MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH, 4(44), 211-215.

¹⁶ Азархин, А. В. (2025). Преподавание правовых дисциплин в условиях интеграции цифровых образовательных технологий. Концепт, (2), 167-180.

¹⁷ Shavkat, A., & Kural, A. (2025). IMPROVING THE USE OF EDUCATIONAL TECHNOLOGIES TO ENHANCE THE QUALITY OF EDUCATION AND EDUCATIONAL VALUE IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS. Advanced methods of ensuring the quality of education: problems and solutions, 2(4), 85-88.

¹⁸ file:///C:/Users/netcom/Downloads/698c1829e68e0851415775.pdf





murakkab tizim sifatida namoyon bo'лади. Yangi media esa ushbu tizimning evolyutsiyasini tezlashtiruvchi asosiy omil hisoblanadi. Yangi media vositalari yordamida ta'lim jarayonini yanada samarali, qiziqarli va interaktiv shaklda tashkil etish imkoniyati yaratiladi. Bu esa o'z navbatida talabalar bilimini chuqurlashtirish, ularning mustaqil fikrlash va izlanish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, axborot texnologiyalari ta'limning individuallashtirilishini ta'minlab, har bir talabaning bilim darajasi va o'zlashtirish sur'atiga moslashish imkonini beradi. Natijada, yangi media vositalaridan samarali foydalanish ta'lim sifatini oshirish, uning samaradorligini kuchaytirish va raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning muhim omili hisoblanadi. Shu bois, ta'lim tizimida axborot texnologiyalaridan keng va maqsadli foydalanish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Jiyanmuratova G.SH.Zamonaviy sotsiologik nazariyalar va maktablar[Matn]Darslik. –Toshkent:“Oltin qalam” nashriyoti,2024. –340 b.
2. <file:///C:/Users/netcom/Downloads/698c1829e68e0851415775.pdf>
3. [file:///C:/Users/netcom/Downloads/dars_sifatini_oshirishda_zamonaviy_axborot_tehnologiyalaridan_foydalanish%20\(3\).pdf](file:///C:/Users/netcom/Downloads/dars_sifatini_oshirishda_zamonaviy_axborot_tehnologiyalaridan_foydalanish%20(3).pdf)
4. Luhmann, N. (1995). Ijtimoiy Tizimlar. Stanford Universiteti Nashri. Betlar: 15- 45.
5. https://www.tsuull.uz/sites/default/files/maqola_11.pdf
6. Xasanboyevna, X. M. (2025). ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARINING O'QITISH METODIKASIGA TA'SIRI: KONSEPTUAL YONDASHUV. Modern World Education: New Age Problems– New solutions, 2(12), 65-68.
7. Anvarovna, A. D. (2025). TA'LIM TIZIMINI TASHKIL ETISHDA ARALASH TA'LIM TEXNOLOGIYALARI. MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH, 4(44), 211-215.
8. Азархин, А. В. (2025). Преподавание правовых дисциплин в условиях интеграции цифровых образовательных технологий. Концепт, (2), 167-180.
9. Shavkat, A., & Kural, A. (2025). IMPROVING THE USE OF EDUCATIONAL TECHNOLOGIES TO ENHANCE THE QUALITY OF EDUCATION AND EDUCATIONAL VALUE IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS. Advanced methods of ensuring the quality of education: problems and solutions, 2(4), 85-88.

